

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: **1701347**

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Uyushiq aniqlovchi mavhum otlar bilan ifodalangan gapni belgilang.
 A) *Bolajon o'zbek xalqi voqeа tagida haqiqat va o'zbekona fe'l-atvor borligiga ishonadi.*
 B) *Iste'dod egasi o'zi yaratgan ma'naviy va moddiy boylikdan o'zi ham bahramand bo'lishga haqli.*
 C) *Insonning yoshlikda yo'l qo'ygan xatosi, bilib-bilmay qilgan gunohi yoshi ulg'ayganida o'z natijasini beradi.*
 D) *Qattiq qo'rqish va vahimaning zo'ridan oyoq-qo'lim bo'shashib, tilim kalimaga kelmay qoldi.*

2. Payt holi shakllantirishga sizni qilgan yordamchi so'z turkumkiga oid so'z qatnashgan gapni toping.
 A) *Havo issiq bo'lgani uchun tun salqinida yo'lga chiqdik.*
 B) *Yo'lovchilar bu sahroga qadam qo'yishlari bilan safar yanada og'irlashdi.*
 C) *Faqat kechalar she'r yozganimda barcha tashvishni unutaman.*
 D) *Shu payt Alishening oilasi va bir necha kishi kirib,unga salom berishdi.*

3. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirot etgan?
 A) *Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.*
 B) *Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug'idan ko'z yumishga majbur qilmaydi.*
 C) *O'z vataniga dog' tushirish uni sotish degan so'z.*
 D) *Vatanni ko'z qorachig'iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.*

4. Berilgan so'zlardan nechtasida portlovchi undosh o'mida sirg'aluvchi undosh kelsa, so'z ma'nosini farqlab paronim juftlikni yuzaga keltiradi?
Qarz, sop, yonilg'i, siqim, yaroqli, adib, burch
 A) 3 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

5. Yopiq bo'g'indlardan biri faqat jarangli sirg'aluvchi til undoshlari va unlidan tarkib topgan so'zni aniqlang.
 A) *insonparvar* B) *suhbat* C) *qing'ir* D) *shamshir*

6. Yam-yashil vohalarga,
 Badiiy lavhalarga,
 She'riy sarlavhalarga,
 Boy ekansan, Farg'ona.
 Ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmni toping.
 A) *egasi umumlashgan sodda gap*
 B) *murakkab fe'l kesim ishtirot etgan sodda gap*
 C) *vositali to'ldiruvchi uyushgan sodda gap*
 D) *to'rt o'rinda sifatlovchi aniqlovchi ishtirot etgan*

7. Hol ergash gapli qo'shma gap haqidagi noto'g'ri hukmni aniqlang.
 A) *Har doim bosh gap oldin, ergash gap keyin keladi.*
 B) *Hol ergash gapli qo'shma gaplar sabab va maqsad ma'nosini anglatganda ergashtiruvchi bog'lovchilar va deb so'zi yordamida bog'lanishi mumkin.*
 C) *Hol ergash gapli qo'shma gap nisbiy so'zlar vositasida bog'lana oladi.*
 D) *Hol ergash gapli qo'shma gap qismalari bog'lovchi vazifasidagi so'z bilan bog'lana oladi.*

8. Qaysi qatordagi juftlik bir umumiyl ma'noni ifodalay oladi?
 A) *ganch-boylik* B) *yaroqli-qurollи* C) *xiyla-nayrang* D) *adil-tikka*

9. Quyida berilgan nechta so'z faqat bir turkum doirasida shakldoshlik xususiyatiga ega?
shox, tovon, es, savdo, qon, in
 A) 5ta B) 3ta C) 2ta D) 4ta

10. Quyidagi berilgan nechta so'z har xil so'z turkumi doirasida shakldosh bo'la boshladи?
o'ch, band, bo'sh, maqom
 A) 2ta B) 4ta C) 3ta D) 2ta

11. 1) qochirmoq; 2) qaytarmoq; 3) yedirmoq; 4) keltirmoq; 5) bo'shatmoq
 Fel asosida ifodalangna o'timli-o'timsizlik ma'nosi qo'shimchasi ta'sirida o'zgargan fe'llarni aniqlang.
 A) I, 2, 4, 5 B) I, 2, 3, 5 C) 2, 3, 4 D) I, 3, 5

12. Quyidagi qaysi gapda sof ko'makchi holni shakllantirgan?
 A) *Bola boshini qo'llari orasiga qo'yib, Boysun tog'i uzra charx urayotgan bulularga qarab jum qoldi.*

- B) *Peshanangiz devorga qarsillab urilgandan keyin esingiz kiradi.*
 C) *U soy yoqalab yotqizilgan omonat toshlardan sakrab-hakkalab, ohista yurib kelardi.*
 D) *Mustafo Galatepaning chekkarog'ida, Ubaydullo Maxsumning hovuzi tarafga turtib chiqqan qir tumshug'ida yashaydi.*

13. Qaysi gapda orttirma nisbatdan tashqari barcha nisbat shakllaridagi fe'llar ishtirot etgan?
 A) *To'rt tomoni hujralar bilan o'ralgan sahna o'rtasidagi sadaqayrag'och shoxlarida chumchuqlar chirqillaшиб, ko'klamni olijishlaydi, allaqayoglardan qaldiring'ochlar o'qday otlib kelib, hovli ichiga kirib ketadi.*
 B) *Vatan haqidagi jozibador qo'shiqlar el-elatlarni birlashtiradi, ularni tinch-totuv va osoyishta yashashga, Vatanni ko'z qarochig'iday asrashga da'vat etadi.*
 C) *Gullar ishq haqida kuylasalar, qushlar sadoqat haqida chug'urlashib babs qilishardilar, gullar Nargisga tasallli bersalar, bulbullar chax-chaxlab, Bamburni Gullar vodiyisiga chaqirardilar.*
 D) *Kampirning katalakday hovlisi misoli tandir, quyosh lovullab qizdiradiyu, atrof uylar bilan o'ralgani uchun qilt etgan shabada yurmaydi.*

14. Qaysi gapda fe'lning buyruq-istik mayliga oid munosabat shaklining badiiy uslubga xos ko'rinishi qo'llangan?
 A) *Men kimga suyangayman, birinchi muhabbatim faqat eslab yongayman, birinchi muhabbatim.*
 B) *Qora ko'zum, kel-u, mardumliq emdi fan qilg'il, Ko'zum qarosida mardum kabi vatan qilg'il.*
 C) *Ko'rgali husnungni zor-u mubtalo bo'laum sanga, Ne balolig' kun edikim, oshno bo'ldum sanga.*
 D) *Yaxshini maqtasang - yarashur, Yomonni maqtasang - adashur.*

15. Ko'zin ochib boqsa Hulkar,
 sho'x qizidan yo'qdir darak,
 Sekingina tebranardi
 ko'z o'ngida bo'sh belanchak. . .
 Ushbu gap...
 A) *qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap*
 B) *bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap*
 C) *bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap*
 D) *aralash murakkab qo'shma gap*

16. Qaysi gapda imloviy xatolik uchramaydi?
 A) *Barcha ilmlarini mukammal egallab olishining iloji yo'q, shuning uchun ham eng kerakli, e'tiqodga xizmat qiladigan ilmlarni o'rganish kerak.*
 B) *Xayoliga kelgan fikrlarni aytishga xayiqdi.*
 C) *Mafkuramizning yagona milliy mafkura ekanligi, bu maqomning O'zbekistonda istiqomat qilayotgan va shu yurtning fuqarosi sanalgan boshqa millat vakillari manfaatlariga zid kelmasligi barchaga ayon.*
 D) *Keyingi yillarda ilm-fan, sport, ijod, san'at va boshqa sohalarda erishilgan olamshumil yutuqlarimizni esga oling.*

17. Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo'yishlarida avvalo ota-onha mahalla-ko'y bir so'z bilan aytganda o'zimizning bilib-bilmay qilgan xatti-harakatlarimiz bosh omil bo'lib xizmat qiladi.
 Ushbu gapda necha o'rinda vergul tushirib qoldirilgan?
 A) 5 o'rinda B) 6 o'rinda C) 7 o'rinda D) 4 o'rinda

18. Ibora bilan ifodalangan sifatlovchi aniqlovchi egaga tobelangan gapni aniqlang.
 A) *Ayollar, yig'lab ko'nglingizni bo'shatishdek ne'mat ato etgani uchun Alloha shukur qiling.*
 B) *Ostonada eti borib suyagiga yopishgan qari it cho'zilib yotardi.*
 C) *Kampir hayotdan ko'z yumganida qishloqlari uni o'sha ko'chadan ko'tarib o'tishdi.*
 D) *Qishloqda beva-bechora, qo'li qisqalarining uyi eng avval tomsuvoq qilinardi.*

19. Fe'l kesimga bog'lanib uning belgisini bildirgan bo'lak mavjud bo'lgan gapni aniqlang.
 A) *Do'stona aloqalar umrboqiyidir.*
 B) *Do'stlar ko'maklashganda, har qanday omadsizlik ham asta chekinadi.*
 C) *Iroda, did va fikrlar uyg'unligi do'stilk zaminini tashkil etadi.*
 D) *Do'stlikdadir obro', kuchimiz, Shu do'stlikni olqishlaylik biz.*

20. Qaysi gapda teng bog'lovchi uyushiq to'ldiruvchini bog'lamagan?
 A) *Fan - qayiq va kemalar uchun ochiq okeandir: biri unda oltin xirmonlarni to'plasa yig'sa, biri unda mayda baliqlar ovlash bilan band.*
 B) *Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilmni o'rganish lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur.*

- C) Bo'htonchilar, chindan ham, baxtsiz maxluqlarki, o'z g'alabalari natijasida yuzlari battarraq qorayganini va ichlari yana battarraq chirkinlashganini sezmaydilar.
 D) Kuchli va olyjanob tabiatlilar hamma asrashga qodir bo'lgan haqiqat yordamida yolg'oni zangidek oyogosti qilib tashlaydilar.
21. Ikki o'rinda mustaqil to'ldiruvchi, ikki o'rinda nomustaqlil to'ldiruvchi ishtirok etgan gapni aniqlang.
 A) Yer qor va yomg'ir namlarini yig'ib, kelgusi yil bosili uchun asrab turadi, o'zida kuch to'playdi.
 B) Ona tilimizning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish uchun uning so'z boyligini bilishgina kifoya qilmaydi.
 C) Bobom shirinso'zlik har qanday baloni qaytarishga qodirligini aytdi.
 D) Shoir xalqni og'ir sinovlar, ulug' o'zgarishlar jipslashtirishini, uning kuch-qudratini imtihon qilishini yozadi.
22. Qaysi gapda fe'lning vazifa shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha bilan omonim bo'la oladigan nisbat qo'shimchasini olgan fe'l qatnashgan?
 A) Nurga to'ldi dara, to'ldi soy, Nur yog'ildi qorong'i jarga.
 B) Tuproq uyumidan sakrab o'tgan Alijon qaytarma etigiga yopishgan changni jahl bilan qoqdi.
 C) Qishloqdan chiqarkan, boy tog'asidan albatta xizmat so'rashini onasi uqtirgan edi.
 D) Menga shuncha yaxshilik qildingiz, necha bor meni yomon yo'ldan qaytardingiz.
23. Atamashunoslik so'zida nechanchi ko'makchi morfemalar bir turkumdan boshqa so'z turkumini yasashga xizmat qilgan?
 A) I- va 2-ko'makchi morfemalar
 B) 2- va 3-ko'makchi morfemalar
 C) saqat 3-ko'makchi morfema
 D) 3- va 4-ko'makchi morfemalar
24. Qaysi gap tarkibida fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?
 A) Balaligimi sirdosh dugonalalr davrasida o'tkazmaganman.
 B) Belanchakda yotgan go'dakning o'ksik yig'isi Oysha onaga ta'sir qildi.
 C) Qizining doimiy ezzin xayollar og'ushida yurghanini ko'rib, uning bir dardiga o'n dard qo'shildi.
 D) Rahimjon korxona xodimlarining e'tiborsizliklari tufayli yuzaga kelgan qatroy jiddiy muammolar haqida gapirdi.
25. Kelgindi hukumat qutqusiga, va'dalarga uchib, o'z millati va xalqini bosqinchilarga ipsiz bog'lab berishdan toymaydigan kimsalar "ikki yuzli ishbuzlar, shaytonlar" deya tilga olingan she'r va uning muallifini aniqlang.
 A) "Yong'in", Cho'pon
 B) "Mirrix yulduziga", Fitrat
 C) "Xazon" Cho'pon
 D) "O'gut", Fitrat
26. Ogahiy o'zbek tiliga tarjima qilgan "Haft paykar" asarining muallifini aniqlang.
 A) Hiloliy B) Nizomiy C) Koshifly D) Vosifly
27. Qaysi ijodkor she'rlaridan birida o'zini "kuyib o'rtangan elning xoki, nazm elining choloki, xonning boshining pokidurman" deya ta'srif beradi?
 A) Avaz O'tar B) Turdi C) Zavqiy D) Muqumiy
28. Qaysi javobda keltirilgan ma'lumot Mirmuhsin hayoti va ijodiga mansub emas?
 A) Romanlaridan birida o'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, chet eldag'i o'zbeklar hayotini aks ettirishga urindi.
 B) Toshkent shahrining Qo'rg'ontepma mahallasida kulol oilasida tug'ilgan.
 C) Ijodkor bir qator dostonlar yaratgan.
 D) "Tungi chaqmoqlar" qissasi xalqimiz o'tmishini aks ettirishga bag'ishlagan.
29. Janni Rodarining "Shahzoda Plombir" ertagi qaysi turkumga mansub?
 A) "Uchtadan oxiri bor ertaklar"
 B) "Rim ertaklari"
 C) "Telefonda aytilgan ertaklar"
 D) "Osmondag'i to'rt"
30. Nodiraning qaysi she'ri o'zbek adabiyotida muashshar janrinining yuksak namunasi hisoblanadi?
 A) "Xating ishtiyoqin savod ayladim"
- B) "Fig'onkim, gardishi davron..."
 C) "Marhabo"
 D) "Firoqnomा"
31. Quyidagi qaysi misra bilan boshlanuvchi she'r muxammas janrida bitilmagan?
 A) "Kishi holimni bilmas, mehribonimdan adashganman" (Furqat)
 B) "Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko'rdiman" (Turdi Farog'iy)
 C) "Ohkim behad menga javr - u jafo aylar falak" (Nodira)
 D) "Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi" (Munis)
32. Mayjud urf – odatlarni buzib, qaynonasini so'ngi yo'lga kuzatgan ayol obrazni qaysi asarda mavjud?"
 A) "Kecha va kunduz" (Cho'pon)
 B) "Ruh bilan suhbat" (S. Zunnunova)
 C) "Qochoq" (S. Ahmad)
 D) "Urushning so'ngi qurbanini" (O'.Hoshimov)
33. 100000 misradan ortiqroq she'r yozgan, lekin bizgacha 2000 misraga yaqin she'ri yetib kelgan shoir nomini ko'rsating.
 A) Fuzuliy B) Rudakiy C) Rumiy D) Sa'diy
34. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da "maqtovlarga loyiq zot", "yaylovlari cheksiz zot" deya qayta-qayta ulug'langan zot kim?
 A) Sraosha B) Axura Mazda C) Mitra D) Narya Sanha
35. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga tegishli ma'lumotni belgilang.
 A) Adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan musoviyattarafayn shaklida she'r yozgan.
 B) Sharq musiqasining yozuvdagi ifodosi uchun "Tanbur chizig'i" deb nom olgan notalar tizimini kashf qilgan.
 C) Uning "Sabog'a xitob" she'ri Istambulda yozilgan.
 D) Otasi Akmal taxallusi bilan she'rler yozgan.
36. Qaysi baytlarda qisqa radif muqayyad qofiyadan keyin kelgan?
 1. Shifoyi vasl qadrin hajr ila o'landan so'r,
 Zuloli zavq shavqin tashnayi diydor o'landan so'r.
 2. Har gadokim, bo'ryoyi faqr erur kisvat anga,
 Saltanat zarbaftidin hpjat emas xil'at anga.
 3. Ko'rgoli la'ling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,
 Bu yamon andishaliqni go'iyo qon tortadur.
 4. Ey orazi shams – u qamarim, netti, ne bo'ladi?
 Vey tishlari dur – u gavharim, netti, ne bo'ldi?
 A) 2, 4 B) 3, 4 C) 1, 2, 3 D) 2, 3

BIOLOGIYA

37. G'o'zaning dominant belgili qo'ng'ir tolali va uzun poyali turi gomozigota oq tola va kalta poyali turi bilan o'zaro chatishirildi. Birinchi avlodda olingen 700 ta o'simlikning barchasi novvot rang tolali va uzun poyali bo'ldi. F2 da olingen 3200 ta o'simlikdan qanchasi novvot rang tolali kalta poyali bo'lgan?
 A) 1800 B) 600 C) 800 D) 400
38. Tishlarning qoramit rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oladada tug'iladigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irlashtirilgan turi mavjud bo'ladi?
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlasa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishirilgandan olingen avlodning necha foizini genotip jihatdan ota-onadan farq qiluvchi organizmlar tashkil qiladi.
 A) 75 B) 25 C) 37,5 D) 31,25
40. Xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi (a) va DNK bo'lagi genomning ma'lum joylarga kirishi (b) qanday nomlanadi?
 A) a-insersiya; b-inversiya
 B) a-inversiya; b-insersiya
 C) a-deletsiya; b-duplikatsiya
 D) a-insersiya; b-ekssiziya

41. O'simlik sitoplazmasida achish jarayonida 80 kJ energiya ATF to'plangan bo'lса, mitokondriyada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lган ATF ga qancha energiya (kJ) bog'langan (b)?
 A) a-1160; b-43200
 B) a-2320; b-4320
 C) a-1280; b-45600
 D) a-2320; b-86400
42. Jinsiy ko'payish jarayonida ulotriksning 64 ta yangi ipi hosil bo'lган bo'lса, ularni hosil qilishda nechta gameta ishtirok etgan?
 A) 128 B) 64 C) 16 D) 32
43. Qaysi javobda o'simliklар sistematikasi katta sistematik guruhdan kichik sistematik guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'satilgan?
 1) qoqio'tdoshlар; 2) qora jusan; 3) magnoliyasimonlar; 4) ikki urug'pallalilar; 5) shuvоq; 6) magnoliyatoifalar; 7) yopiq urug'lilar; 8) ziradoshlar; 9) ermon shuvоg'i
 A) 6,3,1,9,5 B) 5,2,8,4,7 C) 7,4,8,9,5 D) 6,4,1,5,2
44. Odam organizmdagi to'qimalar haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
 A) Epiteliy to'qimasi terining ustki qismida, ichki organlarning tashqi yuzasida bo'ladi va o'zaro zikh joylashgan hujayralardan iborat.
 B) Biriktiruvchi to'qima tarkibida elastik tolali pay va tog'ay hujayralari bo'lib, ular cho'zilish, tortilish kabi ta'sirlarga chidamli bo'ladi
 C) Muskul to'qimasi hujayralari tarkibida miofibril tolachalari bo'lishi hisobiga qisqarib - yozildi va har doim odam ixtiyoriga bog'liq holda ishlaydi
 D) Nerv to'qimasi sezuvchi neyronining aksonlari bosh miya, orqa miyadan chiqib, organ va to'qimalarning sezish va harakatlanish funksiyalarini ta'minlaydi
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
 1) qushlarda to'rt kameralli yurak ; 2) qirqquloqsimonlarda urug';
 3) hasharotlarda qanon; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar;
 5) sutemizuvchilarda jun qoplami; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
 A) a-3,4; b-1,2 B) a-2,6; b-1,5 C) a-1,4; b-5,6 D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biogeotsenoz (b) darajadagi hodisalarini aniqlang.
 1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zambugrug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
 A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'satilgan javobni aniqlang.
 A) odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi
 B) hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi
 C) qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zambugrug'ning penitsill ishlab chiqarishi
 D) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminoz rivojlanishi
48. Xushbo'y no'xat o'simligiga tegishli bo'lмаган ma'lumotlarni aniqlang.
 1) gulining qizil rangda bo'lishi dominant genga bog'liq; 2) hujayrasida polimeraza fermentlari yordamida polinukleotidlар sintez qilinadi; 3) konsumt sifatida oziq zanjiri tarkibiga kiradi; 4) sitoplazmasida 180 g glukozadan achish jarayonida 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi; 5) hujayra qobig'ini tashkil etuvchi polimer nukleotidlарdan tashkil topgan; 6) hujayrasida ATF faqat anaerob sharoitda sintezlanadi
 A) I,4,6 B) 3,5,6 C) 2,3,5 D) 1,3,4
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.
 1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siyidik pufagi muskullarini bo'shashadiradi; 6) siyidik pufagi muskullarini qisqartiradi
 A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. Sog'lom odam yuragining o'ng qorincha sistolasi (a) va chap bo'l macha diastolasi (b) vaqtidagi yurak klapanlarining qanday holatda ekanligini aniqlang.
 A) a-ikki tavaqali klapan ochiq; b- yarimoysimon klapan ochiq
- B) a-uch tavaqali klapan ochiq; b- yarimoysimon klapan yopiq
 C) a-ikki tavaqali klapan yopiq; b- yarimoysimon klapan yopiq
 D) a-uch tavaqali klapan yopiq; b- yarimoysimon klapan ochiq
51. Odamdagи o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsimon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskul bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskul hisoblanadi; 5) suyakkа birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
 A) I,4,5 B) I,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilар orasidan sog'lom odamning siyidik qopiga xos bo'lмаган belgilarni ajrating.
 1) murtak varaqasining endodermasidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shashadi; 6) siyidik qopi devorida proprioreceptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siyidik qopi muskullari qisqarib siyidik ajraladi
 A) I,2,3 B) I,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
 A) Terining derma qavatida sovuqni va siyapalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chugurroq joylashgan.
 B) Gipermetrioya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
 C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.
 D) Harakat analizatorining olyi nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Chuchuk suv shillig'i organlarining tuzilishi haqidagi noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
 1) yurak qorinchasidan chiquvchi qon toming uchi ochiq; 2) paypaslagichlari sezgi hamda ozuqani tutib og'izga yo'naltirish vazifasini bajaradi; 3) mayda tishchalar bilan qoplangan muskulli tilchasi qizilo'ngach ichida joylashgan; 4) jigar ishlab chiqargan suyuqlik oshqozon bo'shlig'iga quyiladi; 5) bir juft tasmasimon buyragining voronkasimon uchi yurak oldi bo'lmasisiga ochiladi; 6) tuxum va spermatozoidlar bitta organizmnинг o'zida hosil bo'ladi
 A) 2,4 B) 2,5 C) 3,6 D) I,5
55. Butli o'rgimchak oyoq paypaslagichlari xos xususiyatlarni aniqlang.
 1) xitin po'st bilan qoplanmagan; 2) pastki jag'lar vazifasini bajaradi; 3) sezgir tukchalar bilan qoplangan; 4) yurishda ishtirok etadi; 5) yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 6) tuyg'u organi hisoblanadi
 A) 2,3,6 B) 4,5 C) I,3,5 D) I,4
56. Bosh skeleti miya qutisi, jag'lar, jabra ravoqlari va jabra qopqog'idan tashkil topgan baliqlarni aniqlang.
 1) beluga; 2) qilquryuq; 3) gigant akula; 4) tikandum skat; 5) oqcha; 6) dengiz tulki
 A) 3,4,6 B) 2,5,6 C) I,2,5 D) 3,4,5
57. Tripanosoma va pichan batsillasi uchun umumiyo bo'lган xususiyatlarni aniqlang.
 A) Hayotning hujayraviy shakli, irsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.
 B) Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitindan iborat.
 C) Yadrosi ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.
 D) Membranasi ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi
58. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi noto'g'ri fikri belgilang.
 A) Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ularдан esa kam tuklilar kelib chiqqan.
 B) Yassi kiprikli chuvalchanglarning parazit yashashga moslanishi tufayli so'rg'ichlilar va tasmasimon chuvalchanglar kelib chiqqan.
 C) Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinilillardan gidrasimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqqan.
 D) Qadimgi yassi chuvalchanglar tanasida tana bo'shlig'i va orqa chiqaruv teshigi payda bo'lishi bilan to'garak chuvalchanglar kelib chiqqan.
59. Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.

- 1) ossillatoriya; 2) temir bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) rafleziya; 6) kalina; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi
 A) a-1,2; b-5,6,7
 B) a-2,3; b-6,7,8
 C) a-2,3; b-4,5,6
 D) a-3; b-6,8,9
60. Hujayra joyining o'zgarishini (1), hujayrada moddalar tashilishini (2), hayvonlarda hujayralararo aloqani (3), hujayra ichki tuzilmasini harakatini (4) ta'minlaydigan hujayra tuzilmalarini to'g'ri ko'rsating.
 a) tashqi endoplazmatik membrana; b) endoplazmatik to'r; c) sitoskelet; d) Golji majmuasi
 A) I-c; 2-b; 3-a; 4-c
 B) I-a; 2-d; 3-b; 4-c
 C) I-b; 2-c; 3-a; 4-d
 D) I-a; 2-a; 3-c; 4-b
61. Organogenezi (I) va gametogenezi (II) jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang.
 1) o'zak organlar majmisi hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyoz usulida ko'payadi; 3) ektodermadan nevr nayi vujudga keladi; 4) spermatogenezning o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5) endodermadan ayirish organlari rivojanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi
 A) I-1,5; II-2,4
 B) I-2,4; II-1,5
 C) I-1,3; II-2,6
 D) I-2,6; II-1,3
62. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklarni aniqlang.
 1) tamaki; 2) sabzi; 3) arpa; 4) sholi; 5) ananas; 6) banan; 7) oshqovoq; 8) kartoshka
 A) 2,6,8 B) 1,5,8 C) 2,4,7 D) 1,3,6
63. HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.
 A) to'rtta nukleotid juftligini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazoniga o'xshaydi
 B) peptid bog' mayjud, to'rtta nukleotid juftligini taniydi
 C) vodorod bog' mayjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash
 D) DNKn yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?
 A) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva
 B) a-juft patsimon, yonbargchasi; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva
 C) a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyshiq gul; c-quruq meva, pallalari orasida to'sig'i yo'q
 D) a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva, pallalari orasida to'sig'i bor
65. Nastarin qaysi jihatlar bilan tokka o'xshaydi?
 1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvi;
 5) hayotiy shakli; 6) gulpoyasining shoxlanishi
 A) I,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. Quyidagi meva turlari qaysi o'simlik navlariga xos ekanligi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 a) danakli meva; b) rezavor meva; c) don meva; d) qovoq meva;
 e) ko'sak meva;
 1) qozidastor; 2) Namangan; 3) zarg'aldoq; 4) gultish;
 5) Samarqand-3; 6) bargi; 7) buvaki; 8) sanzor; 9) yulduz
 A) a-3; b-7; c-8; d-6; e-5
 B) a-3; b-1,4,7; c-8; d-2,9; e-5
 C) a-1; b-4,5; c-8; d-7; e-2
 D) a-3; c-1,6; c-8; d-7; e-4
67. Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchali (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?
 1) yantoq; 2) tok; 3) g'o'za; 4) partenotsissus; 5) burchoq; 6) liftok;
 7) shirinmiya; 8) olma
 A) a-6,8; b-1,5,7
 B) a-1,2; b-4,5,7
 C) a-2,3,8; b-1,4,5,7
 D) a-2,4,6; b-5,7
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
 A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon
 B) tuproq hosil bo'lishida ishtirok etadi
 C) poyasida xitin moddasi uchraydi
 D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo 'tining simbiozi
69. Qarag'aytoifa bo'limiga mansub barcha o'simliklarni haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
 A) Tuxum xujayrasi urug'chili qubbalaridagi arxegoniyyda yetiladi
 B) Urug'chili qubbalaridagi tangachalarida 2 tadan chang donasi yetiladi
 C) Hayotiy shakli daraxt, buta va o't osimliklardan iborat bo'lib, urug'i qubbalarida ochiq holda yetiladi
 D) Barglari oyashil tusda, ignasimon bo'lib novdada ikkitadan bo'lib joylashadi
70. Evolyutsion taraqqiyot jarayonidagi nisbatan yosh organizmlarni aniqlang.
 1) yantoq; 2) zuhrsosch; 3) qirquloloq; 4) oq zamburug'; 5) qo'zidumba; 6) oddiy jag'-jag'; 7) nemalion; 8) ulva
 A) I,6 B) 7,8 C) 2,3 D) 4,5
71. Ilonbo'yin toshbaqa va botqoq toshbaqasining (a), ara to'tiqushi va kakadu to'tiqushining (b) kelib chiqishi qanday jarayonlar natijasi hisoblanadi?
 A) a-simpatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi
 B) a-simpatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi
 C) a-allopatrik tur paydo bo'lishi; b-simpatrik tur paydo bo'lishi
 D) a-allopatrik tur paydo bo'lishi; b-allopatrik tur paydo bo'lishi
72. Divergensiya (a) va konvergensiya (b) hodisalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 A) a-odam va boshqa hayvonlar gemoglobin zanjiridagi aminokislotalar tarkibidagi farq; b-ko'rshapalak va qushlarning qanoti
 B) a-dengiz toshbaqasi va delfinlarda oyoqlarning eshkaksimon bo'lishi; b-boychechak turkumiga mansub 30 ga yaqin turlarning mayjudligi
 C) a-ixtiazov va suteimizuvchilaridan delfinning tana tuzilishning o'xshashligi; b-delfinning oldindi oyog'i suzishga, oting oldindi oyog'i chopishga moslashganligi
 D) a-xaltali krot, oddiy krot tashqi qiyofasining o'zaro o'xshashligi; b-chigirtka oyog'inining sakrashga, suv qandalasi oyog'inining suzishga moslashganligi

KIMYO

73. Kislorod ozonator orqali o'tkazilganda ozon va kislorod aralashmasi hosil bo'ldi. Aralashmada ozonning massa ulushini 50% bo'lsa, reaksiya unumi (%) toping.
 A) 50 B) 53 C) 44 D) 85
74. Qaysi modda fluoressein va eozin olishda asosiy xomashyo hisoblanadi?
 A) fenol B) ftal angidrid C) fluroglutsin D) galantamin
75. Quyidagi galogenlar qatorida qaytaruvchanlik xossasi qanday o'zgaradi?
 $\text{Br}_2 \rightarrow \text{Cl}_2 \rightarrow \text{I}_2 \rightarrow \text{F}_2$ a) ortadi; b) kamayadi
 A) I-b; 2-b; 3-a B) I-b; 2-a; 3-b C) I-a; 2-a; 3-a D) I-b; 2-b; 3-b
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9600 ta uglerod atomi bor bo'lsa, mukleotid tarkibida nechta sitozin bor? (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
 A) 300 B) 200 C) 500 D) 400
77. 17,8 g a-aminokislotalardan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislotali toping.
 A) a-amino 2-metilpropan kislota
 B) glitsin
 C) β -aminopropion kislota
 D) α -aminopropion kislota
78. 17,85 tripeptid gidrolizidan 19,65 g faqat bitta turdag'i aminokislota hosil bo'ladi. Aminokislotali aniqlang.
 A) valin B) a-alanine C) glitsin D) leysin
79. 54 g glukoza kuchli oksidlovchilar bilan oksidlangu olingan kislota necha gramm 12% li o'yuvchi natriy bilan ta'sirlashadi?
 A) 100 B) 300 C) 200 D) 400
80. Qaysi molekula tarkibida 3 ta sp^3 va 2 ta sp^2 - gibridlangan uglerod atomlari bor?
 A) buten-2 B) izopren C) butadiyen-1,3 D) 2-metilbuten-1

81. Qaysi modda fosfat ioni uchun reaktiv hisoblanadi?
- NaOH
 - AgNO_3
 - FeSO_4
 - $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$
82. 56,4 g geminal tuzilishli dixloralkanga KOH ning suvli eritmasi bilan ishlov berilganda 25,8 g organik modda olindi. Dixloralkanni toping. ($\eta=0,75$)
- dixloretan
 - dixlorbutan
 - dixlorpentan
 - dixlorpropan
83. Tarkibida 1 ta $\text{sp}^3\text{-sp}^2$ bog' va 16 sp^3 gibr orbital tutgan benzol gomolog(lar)ni nitrolanganda necha turdag'i mononitrobirikma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)
- 6
 - 4
 - 10
 - 8
84. Dissotsiatsiyalanish darajasi 96% bo'lgan natrui nirtat tuzi eritmasida 2400 ta ion bor bo'lsa, nechta dissotsiatsiyalanmagan tuz molekulasi bor? (suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin)
- 20
 - 50
 - 30
 - 60
85. Pirit bu-...
- temir (II) sulfid
 - temir disulfid
 - tritemir tetaoksid
 - temir (II) sulfat
86. Sulfat kislotaning 850 g eritmasi tarkibida $140 \cdot \text{N}_A$ ta sp^3 -gibrildangan orbitallar mayjud bo'lsa, H_2SO_4 ning massa ulushini toping.
- 39/95
 - 49/85
 - 70/92
 - 85/95
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 20% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
- 3/16; 9/16; 1/4
 - 1/9; 2/3; 2/9
 - 3/10; 3/10; 2/5
 - 1/4; 1/4; 1/2
88. Bosh va orbital kvant sonlari yig'indisi uchga teng bo'lgan ($n+l=3$) necha xil holat mayjud?
- 5
 - 2
 - 3
 - 4
89. Mis (II) sulfat kristallogidrati tarkibida kislordning massa ulushi vodorodnikidan 16 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi?
- 4
 - 2
 - 3
 - 1
90. Kinovar, grinokit, argentit minerallarining qaysi jihatiga bir-biriga o'xshash?
- tarkibida bir xil metallmas mayjud
 - molekulyar massasi bir xil
 - tarkibidagi barcha metallar aktivlik qatorida vodoroddan o'ngda turadi
 - tarkibida metall massa ulushi bir xil
91. Harorat 10°C dan 90°C gacha ko'tarilganda reaksiya tezligi 256 marta oshgan bo'lsa, ushbu reaksiya harorati har 20°C ga oshganda necha marta ortadi?
- 3
 - 4
 - 2
 - 5
92. 75 g 76% li sulfat kislota eritmasiga necha gramm suv qo'shilganda 50% li eritma hosil bo'ladi?
- 25
 - 12,5
 - 17,5
 - 39
93. MeBr_2 tuzi o'z atomlari sonidan 20 marta ko'p atom tutgan suvda eritilganda bromid anionining massa ulushi $2/7$ ga teng bo'lidi. Metallni aniqlang. ($\alpha=1$, gidroliz jarayoni hisobga olmang)
- Mg
 - Ba
 - Ca
 - Zn
94. 40 g X% li NaOH eritmasiga 60 g Y% li NaOH eritmasi qo'shildi. Natijada 24% li eritma olindi. Agar eritmalar konsentratsiyalari nisbatli mos ravishda 1:2 kabi bo'lsa, Y ning qiymatini toping.
- 30
 - 32
 - 20
 - 24
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^4 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.
- 4
 - 9
 - 5
 - 10
96. 7,2 g metal kislotadan 6,72 litr (n.sh) vodorod siqib chiqarsa, 9,6 g metal qanday massadagi (g) Fe^{3+} ni siqib chiqaradi.
- 5,6
 - 28
 - 15
 - 11,2
97. Etilbenzol KMnO_4 , H_2SO_4 eritmasida oksidlanganda gaz ajralib chiqdi. Reaksiya tenglamasidagi koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
- 35
 - 56
 - 91
 - 42
98. 0,28% li KOH ning 0,2 kg eritmasi 5A tok bilan 26,8 soat davomida elektroliz qilindi. Eritmaning pH ni toping. ($p=1,55 \text{ g/ml}$)
- 12
 - 13
 - 11
 - 4
99. Noma'lum III valentli element oksidining ekvivalent molyar massasi 12,667 (g/mol-ekv) ga teng bo'lsa, oksidning molyar massasini (g/mol) aniqlang.
- 102
 - 152
 - 110
 - 76
100. Kaliy permanganat va natrui nitratdan iborat (mol nisbati 1:1) aralashma qizdirilganda olingan kislord mis naychadan o'tkazildi. Bunda mis naychaning 40% i oksidlandi. Olingan nay 320 g 98% li sulfat kislota to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi kaliy permanganat massasini (g) aniqlang.
- 23,7
 - 31,6
 - 63,2
 - 15,8
101. Quyidagi qotishmalarning qaysilarida likvatsiya hodisasi kuzatiladi?
- Fe-Ag;
 - Cu-Au;
 - Sn-Al;
 - Fe-Pb;
 - Pt-Au;
 - Al-Na
- 2,4,6
 - 1,2,4
 - 3,5,6
 - 1,4,6
102. Baryi xlorid eritmasiga tegishli miqdorda $\text{Na}_2\text{SO}_4 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$ kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki baryi xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.
- 524
 - 628
 - 208
 - 828
103. $x\text{MgCO}_3 = y\text{MgCO}_3 + z\text{MgO} + z\text{CO}_2$ ifoda qanday ma'noni anglatadi?
- reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi
 - tuzning namlik darajasi yugori ekanligi
 - MgCO_3 tarkibida qo'shimchalar borligini
 - reaksiyaning qaytarligini
104. Uchta gazdan iborat aralashmada NO va Ar larning mol ulushlari 25% va 25% ga, NO ning massa ulushi esa 19% ga teng bo'lsa, noma'lum gazning molyar massasini (g/mol) aniqlang.
- 16
 - 44
 - 32
 - 20
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi HCl tugaguncha eritilganda H_2 gazi ajraldi va MeCl_2 ning 32,2% li eritmasi hosil bo'lди. Hosil bo'lgan MeCl_2 eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)
- 71
 - 66
 - 59
 - 46
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.
- $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$
 - K_2CO_3
 - $\text{CH}_3\text{COONH}_4$
 - NaNO_2
 - $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$
 - $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
- 2,4,6
 - 1,4,5
 - 1,3,4
 - 2,6
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 20 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
- etan
 - butan
 - pentan
 - propan
108. 26,8 g olma kislotaga stexiometrik nisbatda Na metali qo'shilganda olingan H_2 ni 11,2 litr (n.sh.) C_2H_2 bilan ta'sirlashtirildi. Natijada olingan gazlarni to'liq yondirish uchun necha mol havo kerak?
- 1,2
 - 7
 - 1,4
 - 1,8